

**«TASDIQLAYMAN»**

**O‘zbekiston Respublikasi  
Tog‘-sanoati va geologiya vazirligi  
Geologiya fanlari universiteti  
rektori v.b.**



**M.U. Isoqov**

**2023 y. «22» *noyabr***

**H.M.ABDULLAYEV NOMIDAGI  
GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA INSTITUTI  
DAVLAT MUASSASASI  
USTAVI**

**Toshkent – 2023 yil**

## 1. Umumiy qoidalar

Ushbu Ustav O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi (keyingi o'rinlarda – Kon-geologiya vazirligi deb ataladi) tizimidagi Geologiya fanlari universiteti (keyingi o'rinlarda – Universitet deb ataladi) tarkibida “H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti” davlat muassasasining (keyingi o'rinlarda – Institut deb ataladi) maqomi, maqsadi, vazifa va funksiyalarini, hamda faoliyatining tashkiliy asoslarini belgilaydi.

1.1. Institut O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi “Davlat geologiya va mineral resurslari qo'mitasi tizimida Geologiya fanlari universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 4740-son Qaroriga muvofiq Universitet tarkibiga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi “Ma'muriy islohatlar doirasida tog'-kon sanoati va geologiya sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida”gi 116-Prezident Farmoni muvofiq “H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti” davlat muassasasi negizida qayta tashkil etildi.

Universitet Institutning yagona muassisi hisoblanadi.

Institut “H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti” davlat muassasasining huquqiy vorisi hisoblanadi.

1.2. Institut Universitet tarkibidagi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan, mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to'liq yoki qisman moliyaviy ta'minlab turiladigan, moliyaviy jihatdan ta'minlanadigan notijorat tashkilot shaklidagi davlat muassasasi hisoblanadi. Institut o'zining alohida mulkiga, mustaqil balansiga, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligida shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga, bank hisobvaraqlariga, shu jumladan, xorijiy valyutadagi shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga, shtampi va blankiga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasvirlangan va davlat tilidagi muassasa nomi ko'rsatilgan yumaloq muhriga ega.

1.3. Institutning rasmiy to'liq nomlanishi:

davlat tili, kirill alifbosida – “Х.М. Абдуллаев номидаги Геология ва геофизика институти” davlat muassasasi, qisqartirilgan nomi: “ГГИ”.

davlat tili, lotin alifbosida – “H.M. Abdullaev nomidagi Geologiya va geofizika instituti” davlat muassasasi, qisqartirilgan nomi: “GGI”;

rus tilida – Государственное учреждение “Институт геологии и геофизики имени Х.М. Абдуллаева” (сокращённо: “ИГГ”);

ingliz tilida – State Establishment “Institute of Geology and geophysics named after Kh.M. Abdullaev” (“IGG”).

1.4. Institut o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va

Farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarga Kon-geologiya vazirligi va Universitet buyruqlari, farmoyishlari, yo'riqnomalari, ko'rsatmalari, hamda ushbu Ustavga amal qiladi.

1.5. Institut operativ boshqarish huquqi asosida alohida mulkka ega bo'lib, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi va amalga oshirishi, majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

1.6. Institut tarkibiga ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari va kadrlar tayyorlash bo'yicha faoliyat olib boruvchi laboratoriyalar, ilmiy-texnika bo'limlar, markazlar, ilmiy loyihalarni amalga oshiruvchi guruhlar, yordamchi xizmat ko'rsatuvchi bo'limlar, ishlab chiqarish uchastkalari va poligonlar kiradi.

1.7. Universitet tarkibidagi Institut Kon-geologiya vazirligining amaldagi yuridik shaxslar bilan tuzilgan shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

1.8. Institutning joylashgan manzili: – Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Olimlar ko'chasi, 64 – uy.

1.9. Institutning pochta manzili: – 100164, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64-uy.

## **2. Institutning maqsad va vazifalari, hamda faoliyat turlari**

2.1. Yer qobig'ining geologik tuzilishi va tarkibining chuqur fundamental tadqiqotlarini olib borish, respublika hududining teran yer qa'ri tuzilishini kompleks o'rganish va shu asosda uch o'lchovli geologik-geofizik modellarni tuzish.

2.2. Geologik tadqiqotlar olib borish dasturlarining nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqish, hududlarning resurs salohiyatini baholash hamda geokimyoviy, geofizik va mineralogik tadqiqotlarning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish, geologik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish, shuningdek foydali qazilmalarni qayta ishlashda ilg'or texnologiyalarni tadbiq qilish.

2.3. Foydali qazilma konlarini geologik tahlil etish, bashorat qilish va izlash usullarini takomillashtirishga, geologik va geofizik tadqiqotlar sohasida ilg'or xorijiy texnologiyalarni aprobatsiya qilish va amaliyotda joriy etishga qaratilgan amaliy tadqiqotlar, ishlanmalar va eksperimentlarni tizimli ravishda amalga oshirish.

2.4. Geologiya va geofizika sohasida chet el ilmiy muassasalari va markazlari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish, ilmiy konferensiyalar, seminarlar, qo'shma tadqiqotlar va loyihalarni tashkil qilish.

2.5. Fan va ta'limning uzviyligi va uzliksizligi tamoyili asosida, shuningdek, jaxon ta'limi va ilmiy xamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta'minlash hisobiga mutaxassislar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash sifatini oshirishda faol ishtirok etish.

2.6. Geologiya sohasida ta'lim, ilm-fan va amaliyotning uzviy integratsiyalashuvi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarga iqtidorli talabalarni keng jalb qilish, ularni samarali rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etishda faol ko'maklashish.

2.7. Foydali qazilmalarning yangi turlarini aniqlash, ularni geologik o'rganish va sanoatda o'zlashtirishning zamonaviy usullari, innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish.

2.8. Yer haqidagi fanlar sohasidagi ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishning aniq mezonlari va samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, ularning natijalarini geologiya sohasi amaliyotiga keng joriy qilish.

2.9. Xorijiy davlatlarning yetakchi ta'lim muassasalari ilmiy-tadqiqot markazlari, biznes-xamjamiyatlari va xalqaro geologik jamiyatlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish hamda mustahkamlash.

2.10. Geologiya sohasi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, jaxon geologiya fani hamda amaliyoti erishgan yutuqlar va yangiliklarni chuqur o'rgatish asosida ularga yetkazish, shuningdek, o'quv dasturlarini takomillashtirishda faol ishtirok etish.

2.11. Geologiya va turdosh tarmoqlar sohasida xalqaro standartlar darajasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash, oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari hamda mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishda ishtirok etish.

2.12. Institut o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq ravishda:

- tanlov loyihalari, xo'jalik shartnomalari va xorijiy grantlarga muvofiq ravishda ilmiy tadqiqotlar va ishlarni amalga oshiradi;

- fanning zamonaviy yo'nalishlari bo'yicha davlat ahamiyatiga molik tadqiqot ishlari olib boradi;

- innovatsion dasturlar ishlab chiqishda ishtirok etadi va innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etadi;

- vazirliklar, boshqarmalar, kompaniyalar, uyushmalar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda olingan ilmiy-tadqiqot natijalarini mamlakatning iqtisodiy sohalarida ishlab chiqarishga o'z vaqtida qo'llash choralarini amalga oshiradi;

- tarmoqli ilmiy muassasalar, ilmiy-texnik markazlar, oliy o'quv yurtlari (avvalo magistratura mutaxassisliklari), kolledjlar, vazirliklar, boshqarmalar, kompaniyalar, korxona va tashkilotlar, ilmiy va ilmiy-texnik uyushmalar, ijodiy

ittifoqlar bilan o'zaro manfaatli ilmiy, ilmiy-texnik hamkorlikni o'rnatadi va rivojlantiradi;

- respublika va xorijiy davlatlar (shuningdek, shartnoma bo'yicha) uchun malakali ilmiy kadrlar tayyorlashni amalga oshiradi;

- Institutda lozim bo'lgan holatlarda oliy o'quv yurtlari kafedralari filiallarini tashkil etadi;

- Institut ilmiy xodimlari, respublika va xorijiy davlatlar olimlari va mutaxassislari ishtirokida simpozium, seminar, konferensiyalar hamda dolzarb ilmiy va ilmiy-texnik muammolar bo'yicha kengashlar tashkil etadi va o'tkazadi;

- Institutning xodimlari geologiya fanining fundamental va amaliy muammolari bo'yicha xalqaro konferensiya, simpozium, seminarlarda ishtirok etadi;

- ilmiy bilimlarni jamiyatda keng targ'ibot qiladi;

- ilmiy va amaliy tadqiqotlar bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida o'rnatilgan tartibda ilmiy-texnik hisobot va ma'lumotlarni tayyorlaydi hamda ularni yuqori tashkilotlarga va boshqa davlat organlariga taqdim etadi;

- ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlarni nashr etish uchun material tayyorlaydi va chop etadi;

- ratsionalizatorlik va ixtirochilik takliflarini o'z vaqtida ko'rib chiqilishini va obyektiv baholanishini ta'minlaydi hamda bu faoliyat turlarini olib boradi;

- xorijiy ilmiy-tekshirish, konsultatsion va o'quv markazlari bilan ilmiy va amaliy aloqalarni o'rnatadi va mustahkamlaydi, ular bilan hamkorlik shartnomalarini tuzadi, tashqi iqtisodiy faoliyatni yo'lga qo'yadi;

- mehnat intizomi, mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi va davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risidagi qonunchilikga amal qilishni ta'minlaydi va mehnatni tashkil etishni takomillashtiradi;

- hududlarni kompleks tadqiq qilish, foydali qazilma konlarini geologik-geofizik bashoratlash, namunaviy modellarni yaratish va O'zbekiston hududidagi yangi ma'dan, noma'dan maydonlarni va yashirin ma'dan tanalarni qidirib topish, istiqbollarni aniqlash, hamda qimmatbaho, rangli va nodir metallarning ma'lum va yangi noana'naviy konlarning hosil bo'lish va joylashish qonuniyatlarini aniqlash;

- yirik ilmiy-texnikaviy va ishlab chiqarish loyihalarini ekspertiza qilishda ishtirok etadi;

- tayanch doktoranturaga qabul qilish rejasi bo'yicha, maqsadli kadrlar tayyorlashni hisobga olgan holda takliflar ishlab chiqadi;

- institutning tahririy – nashriyotchilik faoliyati rejalarini tuzadi, poligrafiya faoliyatini amalga oshiradi, ilmiy va davriy nashrlar chop etadi;

- O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan ta'qiqlanmagan boshqa faoliyat turlarini amalga oshiradi.

### **3. Moliya-xo‘jalik faoliyati va moddiy-texnik bazasi**

3.1. Institut mulki davlat tasarrufida bo‘lib, u bo‘linmasdir va hissalariga (ulushlarga, paylarga), shu jumladan Institut xizmatchilari o‘rtasida ham taqsimlanishi mumkin emas. Bu mulkka Institut operativ boshqarish huquqi asosida egalik qiladi va mustaqil balansida ifoda etadi.

3.2. Institut mulkining shakllanish manbalari quyidagilardan iborat:

har yilgi mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta to‘ldirish davlat dasturlarida ajratilgan mablag‘lar;

Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan o‘tkaziladigan tanlov natijalari bo‘yicha ajratiladigan grantlar;

respublika va xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari;

Institut tomonidan shartnomasi asosida xizmatlar ko‘rsatishdan tushadigan mablag‘lar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

3.4. Ko‘char va ko‘chmas mulkni Institut qonunchilikda belgilangan tartibda, faqat maqsadlari, predmeti va turlari ushbu Ustavda belgilangan faoliyatni amalga oshirish imkoniyatidan mahrum qilmaydigan doirada tasarruf etadi.

3.5. Institutda davlat mulkini operativ boshqarish huquqi Institutning asosiy vositalarini va boshqa mulklarini topshirish-qabul qilib olish dalolatnomasi Institut direktori va Universitet tomonidan imzolangan vaqtdan boshlab yuzaga keladi.

3.6. Quyidagi hollarda Institut mulkini tasarruf etish uning direktori tomonidan Universitet bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi:

- asosiy vositalarni sotish, ularni ijaraga yoki garovga topshirish;
- mulkni ulush sifatida xo‘jalik jamiyatining ustav fondiga qo‘shish;
- xo‘jalik jamiyatlarining aksiyalarini (ulushlari)ni sotib olish;
- xo‘jalik jamiyatlaridagi Institutga tegishli aksiyalar (ulushlar)ni sotish;
- mulkni Institut faoliyati maqsadlariga muvofiq bo‘lmagan boshqacha tarzda tasarruf etish.

3.7. Institut yer va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilishni va ulardan foydalanishni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiradi.

### **4. Institutning huquq va majburiyatlari**

4.1. Institut o‘z vazifalarini amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va xalqaro shartnomalarida ko'zda tutilgan huquqiy munosabatlarda o'z nomidan o'rnatilgan tartibda ishtirok etish;

- o'zining vakolat doirasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va ushbu Ustavga zid bo'lmagan zarur qarorlar qabul qilish va amalga oshirish, o'z faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy masalalarini mustaqil hal qilish;

- shartnoma asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish, olingan foydani Institut xodimlarini moddiy rag'batlantirishga, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va rivojlantirishga sarflash;

- olib borilayotgan tadqiqotlarga ekspert sifatida, kontrakt asosida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxona va tashkilotlar mutaxassislari, tadqiqot markazlari xodimlari, oliy o'quv yurtlari va chet el olimlarini va o'qituvchilarini jalb qilish;

- vazirliklar, boshqarmalar, korxona va tashkilotlarga qonunchilikka mos ravishda axborot, konsalting va chop etish xizmatlari ko'rsatish;

- o'rnatilgan tartibda xalqaro hamkorliklarni amalga oshirish, olimlar va mutaxassislarni chet davlatlarga xizmat safariga yuborish, chet el olimlarini, xalqaro ijtimoiy, moliyaviy va iqtisodiy tashkilotlarning vakillarini, soha buyicha chet el firmalari va kompaniyalarining vakillarini taklif qilish va qabul qilish;

- intellektual va boshqa mulklarga, xo'jalik va boshqa faoliyat orqali olingan mahsulot va foydalarga shuningdek, qonunchilik asosida ishlab topilgan mulklarga ega bo'lish, foydalanish va boshqarish;

- o'zining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, kapital qurilishni amalga oshirish, asosiy fondlarni rekonstruksiya qilish va tiklash-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;

- banklarda va boshqa moliyaviy tashkilotlarda hisob raqamlarini ochish va ular bo'yicha mos operatsiyalar o'tkazish;

- rasmiy xalqaro yo'ldoshli, telekommunikatsion va kompyuter aloqalarni sotib olish va ulardan foydalanish;

- Institut, Universitet bilan o'zaro kelishilgan holda, o'z qaramog'ida mustaqil balansda istalgan shakldagi mulkchilikka ega bo'lgan konstruktorlik tashkilotlari, tajriba ishlab chiqarish, kichik va qo'shma korxonalar, firmalar va boshqa tijorat korxonalariga ega bo'lish.

#### 4.2. Institutning majburiyatlari:

- ilmiy loyihalarni moliyalashtirishning yangi tizimiga o'tish qoidalari doirasida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining amaldagi va istiqbol dasturlari, hamda olingan natijalarni iqtisodiyotning turli sohalarida va boshqa tarmoqlarda qo'llash dasturlari bo'yicha tanlovlarda ishtirok etadi;

- asosiy ilmiy yo'nalishi bo'yicha ilmiy va ilmiy-texnikaviy konferensiyalar, seminarlar va simpoziumlar shu jumladan xalqaro tadbirlar o'tkazish loyihasini tuzadi va amalga oshiradi;

- dissertatsiyalar himoyasi bo'yicha ixtisoslashtirilgan kengashlar tuzishga taklif kiritadi va ularning ish faoliyatini ta'minlaydi va korxonaning joriy yil xarajatlari umumiy ro'yxatiga kiritadi;

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga binoan, o'z xodimlari bilan ular yaratgan intellektual mulk obyektlariga huquq beruvchi shartnomalar tuzadi;

- belgilangan tartib asosida eksport-import operatsiyalarini amalga oshiradi, ularga jumladan, intellektual mulk (patent, litsenziya, «nou-xau», foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, «injenering» xizmati, konsalting va boshqalar) obyektlari natijalari ham kiradi;

- Institutning ilmiy sohasiga mos yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini bajarish uchun shartnomalar tuzadi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan boshqa faoliyat turlari bo'yicha ham shartnomalar tuzishi mumkin;

- Institut yo'nalishi bo'yicha buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomalardagi ilmiy-tadqiqot ishlari hajmini mustaqil belgilaydi va bu shartnomalardan tushgan mablag'larni o'rnatilgan tartibda sarflaydi;

- tarkibiy bo'linmalar va xodimlar sonini Universitet bilan kelishgan holda tasdiqlaydi;

- ayrim dasturlarni, loyihalarni shu jumladan ayrim buyurtma va topshiriqlarni bajarish va ishlanmalarni xalq xo'jaligiga tezroq joriy etish uchun vaqtincha ijodiy jamoalar tuzadi;

- Universitet bilan kelishgan holda muayyan lavozimlar uchun belgilangan razryadlar chegarasida razryadlarini, tarif stavkalarini va oylik maoshlariga amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan ustamalarni va qo'shimcha to'lovlarni tayinlaydi, o'zgartiradi va bekor qiladi;

- Institutda foydalanishga mo'ljallangan normativ huquqiy hujjatlarni (lovozim yo'riqnomalari, ichki mehnat tartibi qoidalari, tarkib, bo'linmalar, ularning o'zaro munosabatlari, ishlarni tashkil qilish tartibi, mehnatga haq to'lash tizimi, xarajatlarni hisobdan chiqarish va hokazo) ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va ularni joriy qiladi;

- mukofotlash va ustama haq to'lash haqidagi tasdiqlangan Nizomga muvofiq xodimlarni mukofotlaydi va ularning oylik maoshlariga ustama haqlar belgilaydi;

- ilmiy-tadqiqot ishlarini moddiy-texnik ta'minoti bo'yicha tezkor faoliyat ko'rsatadi, uzluksiz va bir me'yorda ishlash uchun xomashyo, materiallar, yonilg'i

va boshqa resurslarning zarur zaxiralariga ega bo'ladi hamda ularni tejab sarflash choralari ko'radi;

- ixtiyoridagi moliyaviy mablag' doirasida qurilish, asosiy fondlarning rekonstruksiya, kapital va joriy ta'mirlash ishlarini olib boradi, pudrat shartnomasi yoki xo'jalik usuli asosida olib borilayotgan ishlarning bajarilishini nazorat qiladi, obyektlar va sotib olingan asbob-uskunalarining jadal ishga tushirilishini ta'minlaydi.

4.3. Institut eng yaxshi ilmiy ish uchun, shu jumladan yoshlar uchun ham maxsus mukofotlar ta'sis etishi va tegishli tanlov o'tkazishi mumkin.

4.4. Institut o'z xodimlarining shuningdek, boshqa fan va madaniyat xodimlarining fan tarixi uchun qimmatli bo'lgan qo'lyozmalarini shakllantirish va ularni saqlash uchun arxivga topshirish huquqiga ega.

4.5. Institut boshqa ilmiy tashkilotlar, oliy o'quv yurtlari, kutubxonalar, fondlar, nashriyotlar va boshqa davlatlar tashkilotlari bilan bosma nashrlar almashish huquqiga ega.

4.6. Institutga berilgan huquqlar institut direktori tarafidan yoki o'rnatilgan vazifalar taqsimoti bo'yicha Institutning boshqa mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladi.

4.7. Institut olingan natijalarning yuqori saviyada va sifatli ekanligiga, ularning jahonning eng ilg'or natijalari darajasida ekanligiga, ilmiy jamoaning ijodiy imkoniyatlarini maksimal realizatsiya qilishiga sharoit yaratib berilganligiga javobgardir.

4.8. Ilmiy-ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha Institutning vazifalari:

- yuqori tashkilotlar va davlat boshqaruvi organlari qarorlari bilan yuklatilgan vazifalarni, shuningdek xo'jalik subyektlari bilan ilmiy-izlanish va amaliy ishlarni bajarish to'g'risidagi shartnomalarni tuzishda olingan majburiyatlarni sifatli bajarish;

- yosh mutaxassislarning malakalari va bilimlarini oshirish uchun lozim bo'lgan sharoitlarni yaratib berish va Institut ilmiy potensialining o'sishiga yordam berish;

- mulk vositalari va mehnat resurslarini samarali sarflash;

- Institut balansidagi unga ishonib topshirilgan mulkning butunligini ta'minlash, ilmiy uskuna va asboblarning ishlash qobiliyati va foydalanish xarakteristikalarini saqlab turish;

- Institut xodimlarini ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va jismoniy tarbiyalash bo'yicha faoliyat yuritish.

4.9. Institut mehnat haqidagi qonun, mehnatni muhofaza qilishning qoidalari va me'yorlari, texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, ishlab chiqarish sanitariyasi, davlat ijtimoiy sug'urtasi va mehnat intizomi haqidagi qonunlarning bajarilishini ta'minlaydi.

4.10. Institut o‘rab turgan havo, tuproq va suv havzalarini himoya qilish uchun, xo‘jalik chiqindilari, oqova suv va chiqindilar bilan ifloslanmasligi uchun, shuningdek, shovqin va radioto‘sqinliklarga qarshi kurashish uchun zarur bo‘lgan choralarni ko‘radi.

## **5. Institutni boshqarish**

5.1. Institut faoliyatiga Universitet rektorining tavsiyasiga ko‘ra Kon-geologiya vazirligi tomonidan mehnat shartnomasi asosida lavozimiga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan ilmiy unvonga ega bo‘lgan direktor rahbarlik qiladi.

5.2. Direktor lavozimida ishlovchi shaxs mustaqil shtat lavozimida ishlovchi shaxs hisoblanadi va uni o‘rindoshlik tartibida egallashga ruxsat etilmaydi.

5.3. Institut direktori o‘z faoliyatida Universitet Ustaviga, ushbu Ustavga va qonunchilikda belgilangan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladi.

5.4. Kon-geologiya vazirligi bilan kelishgan holda, Universitet rektorining buyrug‘i bilan direktor o‘rinbosarlari tayinlaydi. Direktor o‘rinbosarlarining vakolatlari Institut direktori tomonidan belgilanadi.

5.5. Institut xodimlari va Institut direktori o‘rtasidagi o‘zaro mehnat munosabatlari yuzasidan vujudga keladigan holatlar O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi va Universitet jamoa shartnomasi asosida tuzilgan Institut jamoa shartnomasi bilan tartibga solinadi.

## **6. Institut direktorining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi**

6.1. Institut direktori quyidagilarni amalga oshiradi:

- Institut direktori o‘z faoliyatida mazkur Ustavga, Universitetning Ustaviga va qonunchilikda belgilangan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladi;

- institut nomidan ishonchnomasiz harakat qiladi;
- o‘z vakolati doirasida Institut mulkini boshqaradi, shartnomalar tuzadi, shu jumladan mehnat shartnomalarini (jumladan kontrakt asosidagi shartnomalarni), qonunchilikda belgilangan tartibda ishonchnomalar beradi;
- banklarda hisob-kitob varaqlarini va boshqa hisob varaqlarini ochadi;
- mablag‘larni boshqarish huquqidan foydalanadi;

- Kon-geologiya vazirligi va Universitet bilan kelishgan holda, Institut xizmatchilarining shtatlar sonini va ularning ish haqlari miqdorini tasdiqlaydi;

- buyruqlar chiqaradi;

- Institutning ichki hujjatlarini tasdiqlaydi, Institutning barcha xodimlari bajarishlari shart bo'lgan ko'rsatmalarni beradi;

- o'z xodimlariga kafolatlangan ish sharoitlarini va ijtimoiy himoya choralarini ta'minlaydi, ishlab topilgan mablag'lar doirasida boshqa ijtimoiy imtiyozlar belgilaydi;

- qonunchilik asosida boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

6.2. Institut direktori har chorakda Kon-geologiya vazirligi va Universitet hay'at yig'ilishlarida Institut faoliyati haqida hisobot beradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan davlat muassasasiga yuklangan vazifa va funksiyalar bajarilishini tashkil etishi;

davlat muassasasi oldiga qo'yilgan vazifalarning bajarilishini tashkil etishi va nazorat qilishi;

davlat siriga oid ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilishi;

o'z faoliyati bilan bog'liq prognoz ko'rsatkichlari, davriy ish rejalari va faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichlari hamda mezonlariga so'zsiz erishilishini ta'minlashi;

faoliyatini rivojlantirish bo'yicha tasdiqlangan dasturlar, chora-tadbirlar rejasi, "yo'l xaritalari" va boshqa dasturiy hujjatlarni samarali amalga oshirishi;

fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishi shart.

Davlat muassasasining rahbari qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham bajaradi.

6.3. Institut direktori o'z xuquqlarini amalga oshirish va majburiyatlarini bajarish chog'ida, Institut manfaatlarini ko'zda tutgan holda harakat qiladi va qonunchilikda belgilangan tartibda quyidagilar uchun javobgardir:

- byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlarni o'z vaqtida o'tkazish;

- ish haqini to'lash;

- mehnat munosabatlari va ularga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha kelib chiqadigan barcha talablarni qondirish;

- ishlab-chiqarish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lmagan ehtiyojlarga pul mablag'larini o'tkazmaslik;

- ishlab-chiqarishda baxtsiz xodisa tufayli Institut xodimlariga zarar yetkazilishi yoki sog'liqqa boshqa zarar yetkazilishi;

- uning xarakatlari (xarakatsizligi) tufayli Institutga yetkazilgan moddiy zarar, shu jumladan Institutga topshirilgan davlat mulkining yo'qotilish hollari uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javob beradi.

## **7. Institut filiallari va vakolatxonalari**

7.1. Institut Universitet bilan kelishilgan holda, alohida yuridik shaxs bo'lmagan vakolatxonalar, filiallar va boshqa alohida bo'linmalarni ochishi, ularni alohida balansida va Institut balansida turuvchi mulk bilan ta'minlashi mumkin.

7.2. Vakolatxonalar, filiallar va boshqa alohida bo'linmalar Institut tomonidan tasdiqlagan Nizomlar asosida Institut nomidan faoliyat yuritadi.

Institut tarkibiga strukturaviy bo'linmalar ham kirishi mumkin.

7.3. Institut filiali va tashkiliy tuzilmasining rahbari, Kon-geologiya vazirligi, Universitet bilan kelishilgan holda, Institut direktori tomonidan tayinlanadi va uning ishonchnomasi asosida faoliyat yuritadi. Filial va strukturaviy bo'linmaning rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor kilinganda, ishonchnoma Institut direktori tomonidan bekor kilinadi.

7.4. Institut boshqa davlat korxonasining, tashkilotining va muassasasining ta'sischisi bo'lishi mumkin emas.

## **8. Institutning javobgarligi**

8.1. Institut o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga qarashli bo'lgan mulk bilan javob beradi. Institut mulki yetarli bo'lmagan holda Geologiya fanlari universiteti institut majburiyatlari bo'yicha subsidiar tarzda javob beradi.

8.2. Institut Universitet majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi.

8.3. Institutning filiallari va bo'linmalarining majburiyatlari bo'yicha Institut javob beradi.

## **9. Institutning faoliyati ustidan nazorat**

9.1. Hisobot davri tugagach, Institut vakolatli organlarga moliyaviy hisobot va ro'yxati qonunchilikda belgilangan boshqa hujjatlarni taqdim etadi, hamda belgilangan tartibda hujjatlarning saqlanishi va ularni davlat arxiviga saqlash uchun topshirilishiga javobgardir.

Institut Universitet tomonidan belgilangan shaklda va tartibda o'zining asosiy ishlab chiqarish xo'jalik faoliyati bo'yicha hisobotlarni Universitetga taqdim etadi.

9.2. Institutning xo‘jalik yurituvchi organ sifatidagi faoliyati ustidan nazorat qilishni Universitet va boshqa vakolatli davlat organlari qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiradilar.

## **10. Institutni qayta tashkil etish va tugatish**

Institutni qayta tashkil etish (birlashish, ajralish, o‘zgartirish) va tugatish Universitet bilan kelishgan holda, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko‘zda tutilgan tartibda yoki sud qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

## **11. Ustavga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish**

11.1. Institut Ustaviga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar Universitet rektori bilan kelishgan holda kiritiladi.

11.2. Institut Ustaviga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilganda, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartib va muddatlarda Ustavni ro‘yxatga olgan organga taqdim etishi va bu haqda O‘zbekiston Respublikasining tegishli davlat organlarini, Universitet va Kon-geologiya vazirligini xabardor qilish orqali amalga oshirilishi shart.

**“H.M.Abdullayev nomidagi  
Geologiya va geofizika instituti”  
Davlat muassasasi direktor v.b.**



**A.B. Xolikov**

